Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi.....	718
Berdiyeva Malika	
Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish	721
Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi	



Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	726
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi	
Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari	731
Nazarova Mohigul Akmalovna	
Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar	736
Arabova Muxiba Bazarovna	
Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств	740
Хомидова Камола	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
Бекназаров Собиржон	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni	748
Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li	
Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari	752
Bobonorova Qundizxon Quralbay qizi	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
Мусаева Елена Казимовна	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi	767
Sh. L. Rahmonova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	770
Saidova Dilbar Erkinovna	
Ingliz tili o'qitishda integrativ (CLIL) texnologiyasining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos modellarini ishlab chiqish	773
Xakimova Xosiyat Jurayevna	
Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanish usullari	776
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam Abdug'appon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion o'yin metodlarining ahamiyati	785
Ikromov Ilxom Muxamadrasimovich	
Tabiat tasvirining adabiy janrlarga ko'ra o'ziga xosliklari	790
Fozilova Mohigul Farxodovna	
Методические подходы к развитию прагматической компетентности старшеклассников на основе чтения аутентичных материалов	794
Исаматдинова Машхура Икромжон кизи	
O'zbek tilida "zahar" konseptining leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari	799
Shokirov Sherhali Ibrohimovich, Baxramov Xabibillo Sadikovich	
Integrativ modulli o'qitish tizimi samaradorligining miqdoriy va sifat tahlili	803
Nurmanova Nazira	
Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati	807
Toshova Shaxnoza Tojinorovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga harakatga doir masalalarni klaster metodida o'rgatish	811
Badalov Dilmurod Abdixalilovich	
Ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanishning o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik asoslari	817
Ahmedova Adiba Ulug'bek qizi	
Philosophical Aspects and Analysis of the Regularities of the Formation of Geo-Economic Thinking	822
Ubaydullayev Islomjon Abdullayevich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik asoslari	826
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining (Media/Mass Communication) roli.....	831
Bo'ronova Dilrabo Ne'matullayevna	
Inkluziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish	835
Karimova Zulfiya Abduraxmanovna	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi.....	839
Murodova Sarvigul Raxim qizi	
Модернизация кадровой политики дошкольных учреждений через инновационные мониторинговые механизмы	843
Ким Нигора Каримовна	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish	847
Usmonova Xafiza	
Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	852
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish	857
Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi	
O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	861
Xaydarov Oxunjon Murodjonovich	
Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati	866
B. Normamatova	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	869
Bahranova Hulkar Bahran qizi	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari	875
Botirova Zilola Nodirovna	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish	882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradaorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonovna	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi	



TEACCH KONSEPSIYASI – AUTIZM VA KOMMUNIKATIV BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARNI DAVOLASH VA O'QITISH DASTURI

Murodova Sarvigul Raxim qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Maxsus pedagogik ta'lim yo'nalishi tayanch doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqolada TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlarga ega bo'lgan bolalarni davolash hamda o'qitishga yo'naltirilgan kompleks pedagogik dastur sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda TEACCH konsepsiyasining asosiy tamoyillari, xususan, tizimli ta'limni tashkil etish, vizual tuzilmalardan foydalanish, makonni funktsional jihatdan tashkil qilish va vaqtni tuzilmashtirish jarayonlarining ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, konsepsiya doirasida qo'llaniladigan diagnostik va rivojlantiruvchi yondashuvlarning pedagogik samaradorligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: TEACCH, konsepsiya, vizual axborot, vaqtni tuzilmashtirish, AAPEP.

Abstract: This article examines the TEACCH concept as a comprehensive educational program designed to support and educate children with autism and communication disorders. The study highlights the fundamental principles of the TEACCH approach, including the organization of structured learning, the use of visual supports, functional spatial organization, and time structuring. In addition, the pedagogical effectiveness of diagnostic and developmental approaches implemented within the TEACCH framework is substantiated.

Key words: TEACCH, concept, visual information, time structuring, AAPEP.

Аннотация: В статье рассматривается концепция TEACCH как комплексная педагогическая программа, направленная на обучение и поддержку детей с аутизмом и коммуникативными нарушениями. Анализируются основные принципы концепции TEACCH, в частности системная организация обучения, использование визуальных структур, функциональная организация пространства и структурирование времени. Особое внимание уделяется педагогической эффективности диагностических и развивающих подходов, применяемых в рамках данной концепции.

Ключевые слова: TEACCH, концепция, визуальная информация, структурирование времени, AAPEP.

KIRISH

TEACCH – “Treatment and Education of Autistic and related Communication Handicapped Children” (autizm va u bilan bog'liq kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish) so'zlarining qisqartmasi bo'lib, AQShning Shimoliy Karolina shtatida ishlab chiqilgan keng qamrovli davlat dasturi hisoblanadi.

Shunday qilib, TEACCH usul yoki alohida terapiya emas, balki autizmdan aziyat chekayotgan shaxslarga yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan kompleks dasturdir. Ushbu dastur deyarli 30 yil oldin Erik Shoplarning ilmiy tadqiqotlari asosida universitetlar, ota-onalar uyushmalari hamda davlat idoralari bilan hamkorlikda yaratilgan. Dasturning asosiy maqsadi autizm bilan kasallangan shaxslarning institutsionalizatsiyasi va segregatsiyasining oldini olishdan iborat bo'lgan. Boshqa dasturlar bilan solishtirilganda, TEACCH konsepsiyasi yuqori samaradorlikka ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Vaqt o'tishi bilan nafaqat bolalar, balki autizmga chalingan kattalar ham ushbu dastur doirasida yordam va qo'llab-quvvatlash olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Hozirgi kunda yettita mintaqaviy TEACCH markazlari faoliyat yuritib, bolalar bog'chalari, maktablar, mustaqil yashash maskanlari, ustaxonalar va boshqa muassasalarga, shuningdek, individual shaxslar va ularning oilalariga maslahat hamda amaliy yordam ko'rsatib kelmoqda. Tizimli ilmiy tahlil asosida yordam va qo'llab-quvvatlash shakllari muntazam ravishda nazorat qilinib, doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Shu sababli TEACCH konsepsiyasi butun dunyo bo'ylab autizmga chalingan shaxslarga yordam ko'rsatishning eng o'ziga xos va samarali dasturlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Autizm bilan og'rikan shaxslarga kasallik darajasidan qat'i nazar, maksimal mustaqillikni ta'minlash va yuqori hayot sifatiga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhimdir. Bunda ikki muhim jihat uyg'unlashtirilishi lozim: jamiyatga maksimal darajadagi integratsiya hamda eng yuqori mustaqillikka erishish

imkonini beruvchi maxsus muhitning mavjudligi. Integratsiya jarayoni autizm bilan kasallangan shaxsning erkinligini va rivojlanish imkoniyatlarini cheklamasdan, aksincha, uning salohiyatini kengaytirishga xizmat qilgan taqdirdagina muvaffaqiyatli hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autizm spektr buzilishlari psixik rivojlanishning murakkab shakli sifatida ko'plab olimlar tomonidan affektiv, kommunikativ va ijtimoiy moslashuv muammolari bilan izohlangan. O. S. Nikolskaya va Ye. R. Baenskaya tadqiqotlarida bolalar autizmi emotsional-irodaviy sohaning chuqur buzilishi sifatida talqin qilinib, tuzatish ishlarida bolaning hissiy xavfsizligini ta'minlash muhim omil ekanligi ta'kidlanadi. Ular autizmni faqat klinik holat emas, balki rivojlanishning o'ziga xos modeli sifatida ko'rib, pedagogik va psixologik yordamni uzviy bog'liqlikda olib borish zarurligini asoslab bergan.

Autizmli bolalar bilan ishlashda amaliy pedagogik yondashuvlarga oid tadqiqotlar orasida Ye. S. Ivanov hamda L. N. va R. V. Demyanchuklarning ishlari muhim o'rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida tashxis va tuzatish jarayonining tizimli tashkil etilishi, individual rivojlanish dasturlariga tayangan holda ta'lim berish samarali natijalar berishi ko'rsatib o'tilgan. Mualliflar autistik bolalarda kommunikativ malakalarni rivojlantirish uchun strukturaviy muhit va aniq vizual tayanchlar zarurligini ilmiy asoslab berganlar.

TEACCH konsepsiyasi autizmli va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni o'qitishda samarali model sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv R. Zyumalla tomonidan yoritilib, unda ta'lim jarayonini makon, vaqt va faoliyatni oldindan vizual rejalashtirish orqali tashkil etish asosiy tamoyil sifatida qaraladi. TEACCH dasturida bolaning mustaqilligini rivojlantirish, kundalik faoliyatni tushunarli va bashorat qilinadigan qilish ustuvor hisoblanadi. Bu yondashuv klinik davolashdan ko'ra pedagogik qo'llab-quvvatlashga tayanib, bolani hayotga moslashishga tayyorlashni maqsad qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda TEACCH konsepsiyasining autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash maqsadida sifat va miqdoriy usullar qo'llanildi. Ma'lumotlar autizm spektr buzilishiga ega bolalar bilan olib borilgan pedagogik kuzatuvlar, individual rivojlanish kartalari, diagnostik baholash natijalari hamda mutaxassislar va ota-onalar bilan o'tkazilgan yarim strukturalangan suhbatlar orqali yig'ildi. Shuningdek, mavjud ilmiy manbalar va amaliy qo'llanmalar kontent-tahlil usuli asosida o'rganildi. Olingan empirik ma'lumotlar taqqoslash va tizimlashtirish usullari yordamida tahlil qilinib, TEACCH asosida tashkil etilgan strukturaviy muhitning bolalarning mustaqilligi, kommunikativ faolligi va ijtimoiy moslashuviga ta'siri aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalarini ishonchli baholash uchun dinamik o'zgarishlar oldindan va keyingi holatlar kesimida solishtirildi hamda umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

TEACCH konsepsiyasining asosiy tamoyillari

Zamonaviy ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, autizm bosh miyaning organik shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan va hozirgi kungacha to'liq davolanmaydigan kognitiv buzilish sifatida ham qaraladi. Autizm bilan og'rikan shaxslar butun umri davomida ushbu holat bilan yashaydilar. Shu sababli ularga hayotning barcha sohalarida va butun umr davomida qo'llab-quvvatlash hamda yo'l-yo'riq ko'rsatish zarur.

Autizm bilan og'rikan shaxslarga yordam va hamrohlik "ikki yo'l tamoyili" asosida amalga oshiriladi. Ularga, obrazli qilib aytganda, boshqa madaniyat vakillari sifatida qarash mumkin. Ular atrof-muhitni boshqacha idrok etadilar, boshqa usullarda o'rganadilar. Ularning qadriyatlarini, qoidalari va qiziqishlari o'ziga xosdir. Biroq, shunga qaramay, ular autizm bilan kasallangan shaxslarga nisbatan muayyan talablarni qo'yadigan "noautistik madaniyat" tomonidan yaratilgan jamiyatda yashaydilar.

Iloji boricha mustaqil yashash uchun ular o'z qobiliyatlarini va ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlanishi lozim, bu esa ularga zamonaviy jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talablarni yengib o'tishda yordam beradi. Shu bilan birga, autizm bilan kasallangan shaxslarga "quloq solish" va ular uchun ushbu kasallik tufayli yuzaga keladigan kamchiliklar hamda qiyinchiliklar sezilarli darajada qoplanadigan muhit yaratish muhimdir. Bu esa yangi xatti-harakatlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Bizning pedagog sifatidagi rolimiz aynan madaniyatlararo vositachi vazifasini bajarishga o'xshashdir.

Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun autizm bilan kasallangan shaxslar bilan professional tarzda ishlaydigan mutaxassislar o'zlarini "universal mutaxassis" sifatida ko'rishlari kerak. Bu shuni anglatadiki, ular nafaqat o'zlarining tor yo'nalishlari (masalan, psixologiya, logopediya, psixomotorika) bo'yicha, balki



autizm sohasi bo'yicha ham yetarli darajada bilim va malakaga ega bo'lishlari lozim. Mutaxassislar autizm buzilishining barcha jihatlarini bilishlari zarur, chunki bu autizmli shaxslarning dunyoni qanday idrok etishini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Faqat shundagina ularga yondashish, qo'llab-quvvatlash va samarali yordam ko'rsatishning mos usullarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Ota-onalar bilan hamkorlik ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar "autizm bo'yicha mutaxassis" sifatida o'z bilimlari bilan yordam bersalar, ota-onalar "farzandlari bo'yicha mutaxassis" vazifasini bajaradilar. Odatda, ular farzandlarining kuchli va zaif tomonlarini, qiziqishlarini, o'ziga xos muammolarini, shuningdek, o'zlari va farzandlari duch kelayotgan mavjud boshlang'ich shart-sharoitlar hamda talablarni yaxshiroq biladilar. Shu sababli ota-onalar qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqishda muhim axborot manbai bo'lib, uni amalga oshirish jarayonida ajralmas hamkor hisoblanadilar. Ularning yordamisiz bolaning kundalik hayotiga singdirilishi lozim bo'lgan samarali yordamni ta'minlash deyarli imkonsizdir. Statsionar muassasalarda esa hayotning turli sohalari – uy, maktab va ish o'rtasidagi yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratiladi.

Autizmli shaxslar o'zlarining kuchli va zaif tomonlari hamda qiziqishlari jihatidan nihoyatda farq qiladilar. Ushbu farqlar ularda boshqa maqsadli guruhlarga nisbatan ancha kuchliroq namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Autizm buzilishining muhim belgilaridan biri notekis rivojlanish profilidir, ya'ni bir sohadagi qobiliyatlarning rivojlanish darajasiga qarab boshqa sohalarning rivojlanishi to'g'risida xulosa chiqarib bo'lmaydi. Bu esa shuni anglatadiki, autizmning o'xshash belgilari va rivojlanish darajalariga ega bo'lgan shaxslar butunlay turli qiyinchiliklar va muammolarga duch kelishlari mumkin. Shu sababli ularga xilma-xil va keng qamrovli yordam ko'rsatish zarur. Bu jarayonda yordamni individuallashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, har bir shaxs uchun maxsus dastur ishlab chiqilishi va uni amalga oshirishda aynan o'sha shaxsga nima foydali ekanligini aniqlash muhimdir.

Rivojlanish dasturini individual tanlash va moslashtirish uchun hayotning turli sohalariidagi qobiliyatlar, qiziqishlar va o'ziga xos muammolar to'g'risida to'liq hamda dolzarb ma'lumotlar talab etiladi. Shu bois diagnostikaga, xususan, yordamchi diagnostikaga katta e'tibor qaratiladi. Diagnostika PEPR (qayta ko'rib chiqilgan psixota'lim profili), AAPEP (o'smirlar va kattalar uchun psixota'lim profili) kabi standart usullar yordamida yoki kundalik hayotni norasmiy baholash shaklida o'tkazilishi mumkin. Dastlabki batafsil tashxis bilan bir qatorda rivojlanish maqsadlari ham muntazam ravishda tekshirib boriladi.

Barcha yordam dasturlari autizmli shaxslarning kuchli tomonlari va qiziqishlariga yo'naltirilgan bo'lib, ular orqali mavjud zaif jihatlarni kompensatsiya qilish ko'zda tutiladi. Yordamni rejalashtirish va amalga oshirishda autizmli shaxsda allaqachon shakllangan qobiliyatlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan ushbu qobiliyatlarini maqsadli qo'llab-quvvatlash orqali ularni yanada takomillashtirish mumkin. Autizmli shaxslar o'quv materiallari ularga qiziqarli bo'lsa va bajarilgan ish natijalari tezda ko'rinadigan bo'lsa, o'quv jarayonida eng yaxshi natijalarga erishadilar hamda o'zlarini psixologik jihatdan qulay his qiladilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, TEACCH konsepsiyasi alohida maxsus metod emas, balki mustahkam o'quv-nazariy asosga ega bo'lgan umumiy integrativ pedagogik konsepsiyadir. Umuman olganda, turli usullar va terapevtik yondashuvlardan foydalanish mumkin, biroq ularning samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlangan bo'lishi va mazkur shaxs uchun real foyda keltirishi shart.

Ushbu konsepsiya autizmli shaxslar uchun o'ziga xos "protez" vazifasini bajaradi, ya'ni uning yordamida mavjud nuqsonlar kompensatsiya qilinadi. Masalan, idrokning boshqa buzilishlarida ko'rish buzilishi uchun ko'zoynak, eshitish buzilishi uchun esa eshitish apparati qo'llaniladi.

Autizmli shaxslarda idrokning ayrim jihatlarini yetarli darajada tuzish va yuz berayotgan voqealarning ma'nosini tushunish qobiliyati izdan chiqqan bo'ladi. Shu sababli atrof-dagi olam ularga tartibsiz, tushunarsiz va yengib bo'lmaydigan bo'lib tuyuladi. Qo'llab-quvvatlash jarayonini samarali tashkil etish olingan tajribani qayta ishlash, xavotir darajasini pasaytirish va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashqi tuzilmani yaratishdan boshlanishi lozim. Aynan shu yondashuv TEACCH konsepsiyasining metodologik mohiyatini tashkil etadi.

Tuzilmali ta'lim

Tuzilmaning turli darajalarini tahlil qilishdan avval shuni alohida ta'kidlash lozimki, tuzilmani yaratish insonning harakat erkinligini cheklash emas, balki unga yordam berish uchun xizmat qilishi kerak. Tuzilma atrof-muhitni yanada bashorat qilinadigan va tushunarli qiladi, ishonchsizlik hamda yo'nalishni yo'qotish holatlarining oldini oladi hamda mustaqillik darajasini oshiradi.

Tuzilmalashtirish hech qachon o'z-o'zidan maqsadga aylanmasligi zarur. Tuzilma faqat real ehtiyoj mavjud bo'lgan joylarda qo'llanishi lozim. Agar u to'g'ri tushunilsa va to'g'ri tashkil etilsa, harakatlarning moslashuvchanligi va erkinligini kamaytirmaydi, aksincha, uni sezilarli darajada oshiradi.

Ko'rgazmali tuzilma

Birinchi navbatda, tuzilmalashtirish bo'yicha ko'rsatiladigan har qanday yordam vizual shaklda taqdim etilishi lozim. Bu autizml shaxslarning rivojlangan ko'rish idrokiga asoslanadi, chunki ular ko'pincha eng kichik o'zgarishlarni ham sezish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ayni paytda, odatiy asosiy muloqot vositasi bo'lgan nutq aksariyat hollarda ular uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Bu holat hatto normal intellektual va nutqiy rivojlantirishga ega bo'lgan autizml shaxslarga ham xosdir. Nutq o'tkinchi va mavhum bo'lib, odatda katta hajmdagi axborot qisqa vaqt ichida uzatiladi. Vizual axborot esa ko'rgazmali, aniq va faqat eng muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Vizual tuzilma fazoni funksional zonalariga ajratish orqali, masalan, ish materiallarini o'rganish uchun maxsus hududlar tashkil etish shaklida namoyon bo'ladi. Ko'rsatmalar ham vizual shaklda – yozma matnlar, rasmlar, shablonlar yoki namunalar orqali taqdim etiladi. Bundan tashqari, vizual yordamchi vositalar yordamida vaziyatning muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish orqali tushunarlikni yanada oshirish mumkin. Masalan, kun tartibidagi keyingi faoliyatni aks ettiruvchi qismni rangli ramka bilan belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, shkal tortmalari, xona eshiklari va boshqa joylarga piktogrammalar joylashtirilishi orqali muhitning aniqligi ta'minlanadi. Tuzilmalashtirish uchun asosiy sohani o'z ichiga oladi: fazoviy tuzilma, vaqt tuzilmasi va faoliyat tuzilmasi.

Makonni tashkil etish

Xonalarning jihozlanishi yo'nalishni osonlashtirishi hamda ularning vazifalari to'g'risida aniq axborot berishi lozim. Masalan, ish va o'yin hududlari aniq ajratilgan bo'lishi kerak. Ovqatlanish, ishlash va o'ynash uchun bir xil stolning qo'llanilishi autizml shaxsni chalg'itishi mumkin. Aksincha, har bir faoliyat turi uchun alohida stollar yoki turli rangdagi dasturxonlardan foydalanish unga qaysi faoliyat kutilayotganini tushunishga yordam beradi.

Ko'rinmas chegaralarni, masalan, stol atrofida o'tirgan har bir shaxsning o'ziga tegishli hududini ko'rinadigan qilish zarur. Buning uchun yopishqoq lenta yoki yetarli bo'lmagan hollarda yog'och reykalardan foydalanish mumkin. Bu autizml shaxsga qo'shni tomonidan foydalanilayotgan buyumlar uning hududiga kirmasligini anglashga yordam beradi. Xonalarni tashkil etishda yana bir muhim jihat – autizml shaxslarning sezuvchanligini hisobga olish va chalg'ituvchi omillarni imkon qadar kamaytirishdir. Himoya ekranlari yoki to'siqlar, alohida xonalar yoki shaxsiy stollar, shuningdek, muhitni minimal qo'zg'atuvchilar bilan jihozlash ortiqcha stressning oldini olishga xizmat qiladi.

Vaqt tuzilmalashtirish

Autizm bilan og'rikan shaxslarda vaqt tushunchasi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, ular kun davomida amalga oshiriladigan turli faoliyatlar va ularning o'zaro bog'liqligini anglashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning aksariyati vazifalarni faqat kundalik faoliyatlar qat'iy bir xil tartibda takrorlangan taqdirdagina bajarishga qodir bo'ladilar. Autizml shaxslar bunday takroriylikka qat'iy rioya qilish orqali kutilmagan holatlar sonini kamaytirishga va ularni oldindan bashorat qilishga intiladilar. Biroq bu holat ularni "yopiq doira"ga tushib qolishiga va yangi tajribalarni o'zlashtirish imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, TEACCH konsepsiyasi autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash, o'qitish hamda ijtimoiy moslashtirishda samarali va tizimli yondashuvlardan biridir. Konsepsiya bolaning individual rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda, vizual tuzilmalardan foydalanish, makon va vaqt aniq tashkil etish orqali mustaqillikni oshirishga xizmat qiladi. TEACCH yondashuvi nafaqat bolalarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki ularning kundalik hayotda moslashuvchanlik hamda psixologik barqarorlikka erishishini ta'minlaydi.

Shu munosabat bilan, TEACCH konsepsiyasini maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarida keng joriy etish, mutaxassislarning autizm sohasi bo'yicha malakasini oshirish, ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda diagnostik va rivojlantiruvchi dasturlarni individuallashtirish tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv ta'limning samaradorligini oshirish va autizml bolalar uchun qulay, tushunarli hamda barqaror rivojlanish muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nikolskaya O. S., Baenskaya Ye. R. "Bolalar autizmini affektiv buzilish sifatida tuzatish" 2014.
2. Nikolskaya O. S., Baenskaya Ye. R., Libling M. M. Autistik bola. "Yordam yo'llari." - M.: Terevinf, 2007.
3. Ivanov Ye. S., Demyanchuk L. N., Demyanchuk R. V. "Bolalar autizmi: tashxis va tuzatish" - Sankt-Peterburg, 2004
4. Zyumalla R. TEACH I dasturi bo'yicha "Autizml bolalarni o'qitish va qo'llab-quvvatlash." A. Ladisov, O. Igolnikov. - Minsk, 2005. - 73 b.
5. Clayton P.J., Fatemi S.H. "Psixiatriyaning tibbiy asoslari." - Totova, 2008.
6. www.google
7. www.xrome

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.